XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-mart VII-6-32-10-134-K/25 Ohangaron tumani

Ohangaron tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Ohangaron tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil “26” dekabrdagi 116 - sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Ohangaron tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Ohangaron tumani bilan chegaradosh boʻlgan Yuqori Chirchiq, Parkent, Boʻstonliq, Piskent va Oʻrta Chirchiq tumanlari hamda Ohangaron, Angren, Olmaliq shaharlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi S.Karimovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Sessiya raisi RAXMANOVA NAZIRA AKILXANOVNA

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 20-martdagi
VII-6-32-10-134-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Ohangaron tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

Oʻrta Chirchiq, Yuqori Chirchiq va Ohangaron tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, A-373 avtomobil yoʻlining gʻarb tomonida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°07'11,279", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°26'31,755").*

A dan B gacha Yuqori Chirchiq tumani yerlari bilan 1 - 18 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib qabiriston devoriga oʻtadi va devor boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 501 metr, keyin umumiy janubiy yoʻnalishda 121 metr masofada arqini, qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtadi, soʻngra qishloq ichki yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1099 metr masofani oʻtib yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'48,795", sharqiy uzoqlik 69°27'33,358").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1231 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi va yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 562 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'34,610", sharqiy uzoqlik 69°28'47,296").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 503 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 443 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasiga oʻtadi soʻngra tomorqa chegarsi boʻylab yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 137 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻl boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'48,961", sharqiy uzoqlik 69°29'23,893").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan ariqqa oʻtadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda arining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2054 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'39,852", sharqiy uzoqlik 69°30'39,747").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan Xondam kanaliga oʻtadi va kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 341 metr masofani oʻtadi, keyin kanalni, qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 423 metr masofani oʻtib, soʻngra zovurni kesib oʻtib ekin yer chegarasiga oʻtadi va ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 364 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan

yoʻnalishni oʻzgartimagan holda 309 metr masofani, oʻtadi soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda tomorqa chegarasi boʻylab 218 metr masofani oʻtib Tosh soyga oʻtadi soʻng sharqiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 90 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1034 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'42,219", sharqiy uzoqlik 69°31'40,039").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 123 metr masofada zovurga tutashadi, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 544 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 575 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 112 metr masofada ekin yerni kesib oʻtib tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab janubiy yoʻnalishda 672 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olib 628 metr masofani oʻtadi, keyin yoʻlni kesib oʻtib yoʻlning shimol tomoni bilan umumiygʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 45 metr masofani oʻtadi, soʻng yoʻlni kesib oʻtib, sim toʻsiqqa tutashadi, keyin toʻsiq boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 352 metr masofani oʻtib, sim toʻsiqda joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'39,619", sharqiy uzoqlik 69°32'33,743").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi sim toʻsiq boʻylab janubiy yoʻnalishda 148 metr masofani oʻtadi, keyin quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 120 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 900 metr masofani oʻtib, lotokka tutashadi va lotok boʻylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1031 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'14,333", sharqiy uzoqlik 69°33'13,469").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi beton ariqdan qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 315 metr masofada R-15 avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1053 metr masofada beton ariqqa tutashadi, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 405 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 223 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 629 metr masofani oʻtib, beton ariq boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'13,789", sharqiy uzoqlik 69°34'32,938").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi beton ariqdan ekin yer chegarasiga oʻtadi va ekin yer chegarasi, zovur, ariq boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2408 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'49,388", sharqiy uzoqlik 69°35'50,395").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ekin yer chegarasiga oʻtadi va ekin yer chegarasi boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 908 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 516 metr masofada quruq soyni kesib oʻtib soy boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'53,457", sharqiy uzoqlik 69°36'34,160").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soydan ekin yeri chegarasiga tutashadi, keyin chegara boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 49 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-

sharqiy yo‘nalishda 831 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 603 metr masofani o‘tib, Belovti soyi boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'16,945", sharqiy uzoqlik 69°37'22,099").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi Belovti soyidan ekin yer chegarasiga oʻtib ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 554 metr masofada kon karyer chegarasiga oʻtadi va karyer chegarasi boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 395 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegaarasi boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 636 metr masofani oʻtib, ekin yer chegarsi boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'50,915", sharqiy uzoqlik 69°37'56,303").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy yoʻnalishda 134 metr, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda 408 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 146 metr masofada dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'02,109", sharqiy uzoqlik 69°38'12,490").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ekin yer chegarasiga oʻtib va ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 397 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 68 metr masofani oʻtadi, soʻngra quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 40 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 231 metr, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 230 metr masofani oʻtib tomorqa chegarasiga oʻtadi, soʻngra tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 65 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 99 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 59 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'24,707", sharqiy uzoqlik 69°38'29,061").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa chegarasidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 88 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 101 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 716 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'50,336", sharqiy uzoqlik 69°38'21,010").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yo‘lidan tomorqa devoriga o‘tadi, keyin devor, sim toʻsiq bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 566 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 168 metr, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 234 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ngra chegara bo‘ylab shimoliy yo nalishda 383 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 217 metr masofada R-15 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'32,921", sharqiy uzoqlik 69°38'11,401").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi R-15 avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 87 metr masofani oʻtib, ekin yer chegarasiga oʻtadi va ekin yer chegarasi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 621 metr masofani oʻtib, Parkent va Ohangaron, Yuqori Chirchiq tumani chegara

chiziqlari kesishgan joy, ekin yer chegarasi boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'53,790", sharqiy uzoqlik 69°38'11,899").*

B dan D gacha Parkent tumani yerlari bilan 18 - 31 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

18-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1184 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'10,224", sharqiy uzoqlik 69°38'50,368").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1832 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'14,645", sharqiy uzoqlik 69°39'53,914").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi adirlik yoʻli boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 808 metr masofada R-15 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'48,592", sharqiy uzoqlik 69°39'54,622").*

21-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 1264 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 2321 metr masofani oʻtib, R-15 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'0,097", sharqiy uzoqlik 69°41'39,352").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi R-15 avtomobil yoʻlidan dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1077 metr, soʻng umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2602 metr, soʻngra yoʻlning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 980 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'37,205", sharqiy uzoqlik 69°43'34,768").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3768 metr masofani oʻtib, dala tupro yoʻli boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'52,587", sharqiy uzoqlik 69°45'20,869").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3939 metr masofani oʻtib togʻ tizmasi yon bagʻrida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'01,812", sharqiy uzoqlik 69°47'02,862").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmalarining yon bagʻirlari boʻylab avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 777 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3865 metr masofani oʻtib, togʻ yon bagʻrida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'54,101", sharqiy uzoqlik 69°49'18,881").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4092 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'16,397", sharqiy uzoqlik 69°51'08,648").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi avval dala tuproq yoʻlining janub tomoni boʻylab umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1101 metr, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1152 metr, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda

1947 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'04,728", sharqiy uzoqlik 69°53'14,702").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻldan Taqali togʻ tizmasiga oʻtib va umumiy shimoliy yoʻnalishda togʻ tizmasi boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1803 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4576 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°11'07,043", sharqiy uzoqlik 69°55'22,176").*

29-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmasi boʻylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2387 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy yoʻnalishda 985 metr masofani oʻtib, soʻngra umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4392 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'53,961", sharqiy uzoqlik 69°58'30,553").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3794 metr masofani oʻtib, Parkent, Boʻstonliq hamda Ohangaron tumanlari cheagara chiziqlari kesishgan joy, Taqali togʻ va Chotqol togʻ tizmalari tutashadigan joydagi 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'48,518", sharqiy uzoqlik 69°58'26,354").*

D dan E gacha Boʻstonliq tumani yerlari bilan 31 - 36 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

31-nuqtadan chegara chizigʻi Chotqol togʻ tizmasi boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2465 metr, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda 3206 metr masofani oʻtib, togʻ yon bagʻrida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°16'18,562", sharqiy uzoqlik 70°01'59,379").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi Chotqol togʻ tizmasining yon bagʻirlari boʻylab umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2804 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2910 metr masofani oʻtib, togʻ yon bagʻrida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'31,874", sharqiy uzoqlik 70°05'15,841").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi Chotqol togʻ tizmasining yon bagʻirlari boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5141 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3347 metr masofani oʻtib, togʻ yon bagʻrida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°14'53,319", sharqiy uzoqlik 70°10'30,694").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi Chotqol togʻ tizmasining yon bagʻirlari boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5478 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2365 metr, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2653 metr masofani oʻtib, togʻ yon bagʻrida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'28,923", sharqiy uzoqlik 70°16'44,462").*

35-nuqtadan chegara chizigʻi Chotqol togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4258 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1287 metr, soʻngra umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6288 metr masofani oʻtib, Namangan viloyati va Boʻstonliq, Ohangaron tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy,

Chotqol tog‘ tizmasida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'41,983", sharqiy uzoqlik 70°23'20,304").*

E dan F gacha Namangan viloyati yerlari bilan 36 - 64 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

36-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasiga bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishida barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1091 metr masofani o‘tib 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'45,458", sharqiy uzunlik 70°24'05,182").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1479 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 1140 metr masofani o‘tib 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'45,557",sharqiy uzunlik 70°25'41,064").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ tizmasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1837 metr masofani o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda 489 metr masofani o‘tib, dala yo‘li bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'12,656", sharqiy uzunlik 70°26'54,970").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomani bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1064 metr masofalarni o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1288 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 40–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°14'22,708", sharqiy uzunlik 70°25'52,283").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1291 metr masofani o‘tib 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'44,660", sharqiy uzunlik 70°25'35,817").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 203 metr masofani dala tuproq yo‘li kesib o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bo‘ylab janubiy yo‘nalishida 741 metr masofani o‘tib 42–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'16,523", sharqiy uzunlik 70°25'36,446").*

42-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy yo‘nalish 626 metr masofani o‘tib, Lochin soy bo‘yida joylashgan 43–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°12'56,525",sharqiy uzunlik 70°25'39,704").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i Lochin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 908 metr masofani o‘tib, soy boyidagi 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°12'29,376",sharqiy uzunlik 70°25'37,240").*

44-nuqtadan chegara chizig‘i Lochin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishida barcha burilishlarini hisobga olgan holda 551 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishida1382 metr, so‘ng umumiy janubiy yo ‘nalishda 1365 metr, so ‘ngra janubiy-sharqiy yo ‘nalishda 2416 metr, keyin janubiy yo ‘nalishda 881 metr masofada soy bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'48,610", sharqiy uzunlik 70°27'06,135").*

45-nuqtadan chegara chizig‘i soydan quruq chiziq orqali Toshkent-Pop temir yo‘lini va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 271 metr masofani o‘tib, keyin Ohangaron daryosi suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida 55 metr masofani o‘tib, daryo

dambasi bo'yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'40,731",sharqiy uzunlik 70°27'10,186").*

46-nuqtadan chegara chizig'i daryo damba bo'ylab umumiy janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1780 metr masofada o'tib, A-373 avtomobil yo'li bo'yidagi 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'08,193",sharqiy uzunlik 70°26'14,640").*

47-nuqtadan chegara chizig'i A-373 avtomobil yo'li kesib o'tib, yo'lning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 176 metr masofani o'tib, keyin xarbiy qismga boradigan avtomobil yo'lining janubiy yo'nalishida 55 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 52 metr masofada xarbiy qism devoriga tutashadi va devor bo'ylab yo'nalish o'zgarmagan holda 179 metr masofada Qamchiq soy bo'yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'09,016",sharqiy uzunlik 70°26'30,661").*

48–nuqtadan chegara chizig'i Qamchiq soyi suv oqimga qarshi tomoni bo'ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishida barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1749 metr masofani o'tib, keyin umumiy janubiy-sharqiy yo 'nalishda 3166 metr masofani o'tib, soy bo'yida joylashgan 49–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'29,293", sharqiy uzunlik 70°28'33,521").*

49–nuqtadan chegara chizig'i Qamchiq soyi suv oqimga qarshi tomoni bo'ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishida barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2382 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 714 metr masofani otib, A-373 avtomabil yo'li bo'yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'32,604", sharqiy uzunlik 70°29'54,100").*

50–nuqtadan chegara chizig'i A-373 avtomabil yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda 288 metr masofani o'tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo 'nalishda 157 metr, so 'ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo 'nalishda 128 metr masofada Qamchiq soy bo'yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'24,884",sharqiy uzunlik 70°30'04,808").*

51–nuqtadan chegara Qamchiq soyi suv oqimga qarshi tomoni bo'ylab janubiy-sharq yo'nalishida barcha burilishlarini hisobga olgan holda 572 metr masofani bosib o'tib, Qamchiq soyning avtomobil yo'l bilan tutashgan joyiga 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'12,911", sharqiy uzunlik 70°30'22,590").*

52–nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lini kesib o'tib Qamchiq soyga tutashadi va soyning suv oqimiga qarshi umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1454 metr masofani o'tib, avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'44,083", sharqiy uzunlik 70°31'07,989").*

53–nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'linining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 72 metr masofani o'tib, keyin quruq chiziq orqali g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1249 metr masofada dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'32,738", sharqiy uzunlik 70°30'15,457").*

54–nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 479 metr masofani o'tib, keyin yo'lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 890 metr masofani o'tib, Qurama tog' cho'qqisida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'58,103",sharqiy uzunlik 70°29'51,095").*

55–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy yoʻnalishda 391 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 56–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'45,535",sharqiy uzunlik 70°29'50,171").*

56–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 723 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 57–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'25,748", sharqiy uzunlik 70°29'34,332").*

57–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 746 metr masofani oʻtib 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'04,752",sharqiy uzunlik 70°29'21,627".*

58–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 751 metr masofani oʻtib 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'45,021", sharqiy uzunlik 70°29'06,864").*

59–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 510 metr masofani oʻtib 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'33,126", sharqiy uzunlik 70°28'53,493").*

60–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 494 metr masofani oʻtib 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'19,331", sharqiy uzunlik 70°28'44,988").*

61–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 731 metr masofani oʻtib 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'57,580", sharqiy uzunlik 70°28'35,367").*

62–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 965 metr masofani oʻtib 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'28,142",sharqiy uzunlik 70°28'23,903").*

63–nuqtadan chegara chizigʻi Qurama togʻ tizmasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 110 metr masofani oʻtib, Tojikiston Respublikasi hamda Namangan viloyati va Ohangaron tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41°02'25,051",sharqiy uzunlik 70°28'21,566").*

F dan G gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 64-65-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

64-nuqtadan 65-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi.boshlang‘ich 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'28,414", sharqiy uzoqlik 69°49'06,024").*

G dan H gacha Piskent tumani yerlari bilan 65 - 82 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

65-nuqtadan chegara chizigʻi Qoratepa togʻ tizmasi boʻylab avval shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1250 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2295 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2430 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'47,912", sharqiy uzoqlik 69°47'20,892").*

66-nuqtadan chegara chizigʻi Qoratep togʻ tizmasidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 402 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2974 metr masofani oʻtib, soʻngra umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy

yoʻnalishda 2658 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'29,088", sharqiy uzoqlik 69°44'08,619").*

67-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2157 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasiga oʻtadi va togʻ tizmasi boʻylab yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 1588 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'04,810", sharqiy uzoqlik 69°43'15,425").*

68-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1936 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 632 metr, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda 803 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'27,060", sharqiy uzoqlik 69°42'30,885").*

69-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan quruq soyga tutashadi va soy boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 740 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi, keyin avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 433 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 49' 49,900", sharqiy uzoqlik 69°42'15,498").*

70-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan quruq soyga tutashadi, keyin soy boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 157 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1112 metr, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 651 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻlida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'39,471", sharqiy uzoqlik 69°41'38,106").*

71-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 921 metr masofada soy irmogʻiga tutashadi va irmoq boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 703 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'12,083", sharqiy uzoqlik 69°41'26,804").*

72-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 171 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 90 metr, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 181 metr, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 963 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'22,649", sharqiy uzoqlik 69°40'46,756").*

73-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 124 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 1037 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 47 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'19,469", sharqiy uzoqlik 69°40'01,684").*

74-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 407 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy

yoʻnalishda 164 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 51' 20,777", sharqiy uzoqlik 69°39'38,466").*

75-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 311 metr masofani oʻtadi, soʻng avtomobil yoʻlini kesib oʻtib dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 354 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻlida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'35,798", sharqiy uzoqlik 69°39'40,804").*

76-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 192 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 105 metr masofada ariqqa tutashadi va shimoliy yoʻnalishda arining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 195 metr masofada ariqni kesib ariqqa oʻtadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda aariqning suv oqimi boʻylab 60 metr masofada zovur boʻyida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'49,211", sharqiy uzoqlik 69°39'36,086").*

77-nuqtadan chegara chizigʻi zovurda ariqqa oʻtadi va gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 50 metr, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda 247 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 270 metr masofada ariqni kesib oʻtadi, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 221 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'04,156", sharqiy uzoqlik 69°39'50,268").*

78-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofani oʻtib, ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 126 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 309 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 163 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 62 metr masofani oʻtib dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'03,556", sharqiy uzoqlik 69°39'26,348").*

79-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ariqqa oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1233 metr masofani oʻtib, issiqxona devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 112 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 151 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 34 metr masofani oʻtib dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'49,954", sharqiy uzoqlik 69°39'30,277").*

80-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 118 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 65 metr masofani oʻtadi, soʻng toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy sharqiy yoʻnalishda 25 metr masofada Sharkiya kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'52,519", sharqiy uzoqlik 69°39'36,683").*

81-nuqtadan chegara chizigʻi Sharkiya kanalining suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 238 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 322 metr masofani oʻtadi, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 20 metr masofada Yangi Yordam arigʻiga oʻtadi va arining suv oqimi boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 260 metr masofani oʻtib,

Olmaliq shahri hmada Ohangaron, Piskent tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy ariq boʻyida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'48,606", sharqiy uzoqlik 69°39'03,249").*

H dan I gacha Olmaliq shahar yerlari bilan 82 - 84 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

82-nuqtadan chegara chizigʻi Yangi Yordam kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1339 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 658 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'52,299", sharqiy uzoqlik 69°37'41,713").*

83-nuqtadan chegara chizigʻi Yangi Yordam kanalidan avtomobil yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 735 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 383 metr masofani oʻtib, Olmaliq shahri hamda Ohangaron, Piskent tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'22,986", sharqiy uzoqlik 69°37'35,345").*

I dan J gacha Piskent tumani yerlari bilan 84 - 86 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

84-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 272 metr masofanda ariqni, Ohangaron soyini kesib oʻtib, soy boʻyida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'30,802", sharqiy uzoqlik 69°37'40,712").*

85-nuqtadan chegara chizigʻi Ohangaron soyining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 454 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 289 metr masofani oʻtib, Ohangaron shahri va Ohangaron, Piskent tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'39,841", sharqiy uzoqlik 69°37'44,772").*

J dan K gacha Ohangaron shahar yerlari bilan 86 - 102 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

86-nuqtdana chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 513 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 228 metr, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 58 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'30,517", sharqiy uzoqlik 69°38'12,245").*

87-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Ohangaron daryosiga oʻtadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1794 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'17,930", sharqiy uzoqlik 69°39'19,968").*

88-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Ohangaron daryosi qirgʻogʻiga oʻtadi va umumiy sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 726 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 53' 16,098", sharqiy uzoqlik 69° 39' 47,277").*

89-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 146 metr masofada temir yoʻliga tutashadi, keyin temir yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 16 metr masofani oʻtib, temir yoʻli boʻyida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'15,499", sharqiy uzoqlik 69°39'53,640").*

90-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Ohangaron daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 254 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 517 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 845 metr masofada A-373 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'57,526", sharqiy uzoqlik 69°40'11,196").*

91-nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻlidan Shovvozsoy soyiga oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 218 metr masofada temr yoʻlni kesib oʻtadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 97 metr masofada ishlab chiqarish korxonasi devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 200 metr masofani oʻtib Shovvozsoy soyiga oʻtadi, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 331 metr masofani oʻtadi, soʻng quruq chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 52 metr masofani oʻtib, ishlab chiqarish korxonasi devoriga oʻtadi va devor boʻylab yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 228 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 57 metr masofani oʻtadi, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 27 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 54' 31,429", sharqiy uzoqlik 69° 40' 12,836").*

92-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1118 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1070 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'33,088", sharqiy uzoqlik 69°39'50,744").*

